

ADABIY ASAR MAZMUNINI OCHIB BERISHDA BADIY OBRAZNING ROLI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10925861>

Bahriddinov Muslimbek Muhiddinovich

Ingliz tili va adabiyoti kafedrasi o'qituvchisi

Fozilova Muxlisa G'anisher qizi

Andijon davlat chet tillari instituti 1-bosqich talabasi

Annotatsiya

Bugungi kunda barcha insonlar kitob o'qishga targ'ib qilinmoqda. Chunki adabiy asarlar ma'naviyatimizni yuksaltiradi. Buning uchun, avvalo, biz asar mazmunini tushunishimiz va tahlil qila olishimiz zarur. Bu borada, badiiy obrazlar kata ahmiyatga ega. Mazkur maqola badiiy obrazning asar mazmunini yoritishdagi o'rni va uning turlari haqida ma'lumot beradi. Shuningdek, unda olimlarning badiiy obraz haqidagi fikrlari hamda badiiy asarlar tahlili keltirilgan. Bu tahlillar orqali biz o'zimizga tegishli xulosani olamiz.

Kalit so'zlar

Obraz, obraz turlari, adabiy qahramon, tragediya, xalq og'zaki ijodi, yozma adabiyot, majoziy timsol, yozuvchining munosabati va shaxsiy qarashlar.

V. Bellinskiy san'at va adabiyotda obraz deyilganda inson e'tiborga olinishini ta'kidlar ekan, "Tabiat san'atning timsolidir, lekin undagi eng oliy predmet, albatta, inson bo'lmog'I kerak" deydi.²¹

Dunyodagi jamiki jonzotlar orasida onglisi va fikrlay oladiganni insondir. Har bir inson o'z bilimi va ma'naviyatiga ega. Ushbu ma'naviyat va san'at badiiy asar shaklida yashaydi. Badiiy asarlarni insonlarga ta'sir ko'rsata oladigan bir kuch deyish mumkin. Negaki u inson xis-tuyg'ularini va ongini tarbiyalashda ulkan rol o'ynaydi. Adabiy asarlarni mualliflari bilan birgalikda kitobxon xayotning turli tomonlari, xarakterlar va hodisalar mohiyatiga kirib boradi hamda o'zida ularga bo'lgan munosabatni shakillantiradi.

Kitobxon badiiy asar o'qir ekan, uni taxlil qilishdan avval badiiy obraz degan tushunchani anglab yetmog'i zarur. Shu o'rinda "badiiy obraz nima?" degan savol tug'ilishi tabiiy. Ko'plab olimlar bu haqida o'zining kitoblarida turli fikrlarni yozib o'tganlar.

²¹ T. Boboyev. Adabiyotshunoslik asoslari. b - 42

“Obraz” termini rus tilidan olingan bo‘lib, o‘zbekcha tarjimada “Aks” degan ma‘noni anglatadi. Masalan kishining oynadagi aksiga nisbatan ham “obraz” deb aytiladi. Biroq, bilasizki, so‘zning lug‘aviy ma‘no bilan istilohiy ma‘nosi farqlanadi: lug‘aviy ma‘no bilan istilohiy ma‘no orasida tutash nuqtalar bo‘lsada, mutahassis istiloh ostida kankret ma‘noni tushunmog‘i lozim bo‘ladi. Shunga ko‘ra, biz “obraz” deganda adabiyot va san‘atning tafakkur shakli bo‘lmish badiiy obrazni nazarda tutamiz.²²

“Ayrim manbalarda obraz atamasi “raz” (chiziq) so‘zidan olingan bo‘lib, raz so‘zidan “razit” (chizmoq, yo‘nmoq) va undan “Obrazit” (yo‘nib shakl yasamoq) so‘zi yasalgan. Obrazitdan obraz (umuman olingan tasvir) vujudga kelgan” deyiladi.

Umumiy qilib aytganda adabiy asarda tasvirlangan inson, narsa-buyum, xodisalarning barchasi obraz deb yuritiladi. Chunki ularning xar biri hodisaning ma‘lum bir qirrasini, jihatini o‘zida namoyon etib, voqelikni to‘la tasavvur etish imkonini beradi. Biroq “badiiy obraz” terminini, avvalo insonga qo‘llash maqsadga muvofiq. Negakiy san‘at va adabiyot asarlarida hayotning har qanday ko‘rinishlarini ko‘rsatishdan ko‘zda tutilgan maqsad avvalo insondir.

Darhaqiqat qanday asar o‘qimaylik, ularning zamirida insoniy fazilatlar va tuyg‘ular mujassamlashgan. Asardagi har bir narsabuyum insonlarning kechinmalarini ochib beruvchi vosita sanaladi. Misol uchun shoir Muhammad Yusufning “Lolaqizg‘aldoq” she‘ridan parcha o‘qisak:

“Uyda yotibmanu, sezib turibman
Ko‘kda kelayotir qushlar qaytishib
Xayrlar yog‘dirib qanotlaridan
Xasta shoiriga vido aytishib
Bor, mening uchun ham, ularga qo‘l qoq
Lola, lolajonim, lolaqizg‘aldoq

Ularni men yana ko‘ramanmi-a
Ayvondan odamdek kuzatolmadim
Kuz. To‘ylar boshlandi. Yuragim pora...
Bitta qizimni ham uzatolmadim
Demak, taqdir ekan to‘y ko‘rmay o‘lmoq
Lola, lolajonim, lolaqizg‘aldoq”²³

²² D.Quronov.Adabiyotshunoslikka kirish.B-63

²³M.Yusuf.Saylanma. B-344

She'ning mazmunidan malumki, bu xasta insonning so'zlari... umri poyoniga yetib borayotgan inson qanday holatda bo'ladi! Nima uchun u lolaqizg'aldoqqa nido qilyapti?! Ruh tanani tark etar ekan, inson hayot naqadar go'zal ekanligini anglab yetadi. U qilmagan hali qancha ishlar bor, ko'ngli g'ash, hayollari tinchlik bermaydi... Bilamizki, lolaqizg'aldoq qirlarda ochiladigan gul. U juda nozik bo'lganidan tik turolmaydi, balki pastga qayrilib turadi. Gulning o'rtasi qora rangda. Aynan shu boisdan muallif badiiy obraz sifaditda lolaqizg'aldoqni tanlagan. She'rdagi xastalikdan boshi egilgan, farzandlarining taqdirini o'ylab ko'ngli g'ash tortgan inson tasviri bag'ri dog' gul orqali yoritib berilgan. Albatta, bu badiiy obrazga bir misol. Bunday obrazlarning turlari ko'p, shunga qaramay, mavjud darslik va qo'llanmalarda ta'kitlangan badiiy obraz turlari to'rtta: realistik obraz, romantik obraz, hayoliy-fantastik obraz va majoziy-ramziy obrazlardir.

Realistik obraz turiga kiruvchi asar qahramonlari haqiqiy hayotdan olinadi. Ular biz har kuni uchratadigan, suhbat queadigan odamlar bolishi ham mumkin. Bunga misol qilib, Sharof Boshbekovning "Temir xotin" asarini olishimiz mumkin. Tragediyani aks ettirgan bu komediya, o'tgan asrning 80-yillarida yaratilgan bo'lib o'zbek xalqining o'sha davrdagi ayanchli ahvolni kulgili tarzda yaratib bergan.

"Qishloq. Oddiy, kamtarona hovli. To'gr'ida bir necha ustunli peshayvon, o'ngda pastakkina ko'cha eshigi, oldinroqda yog'och karavot. Sahnadagi har bir jihoz, har bir buyumda nimadir yetishmaydi: Eshik-deraza romlarning yarmi bo'yalgan, yarmining rangi o'chib ketgan; yog'och karavotning bitta oyog'i yo'q, o'rniga g'isht terib qo'yilgan; ko'rpa-yostiqa yamoq tushgan, piyolalarning labi uchgan yoki chegalangan, choynakning jo'mragi tunuka kiykizilgan va hokazo."²⁴

Ushbu parcha asarning boshlanishi bolib unda 80-yillarda yashagan oddiy odamlarning yashash sharoiti tasvirlangan. Parchada tasvirlangan har bir narsabuyum, predmet o'sha davrdagi hayot tarzini tasvirlashga xizmat qilmoqda. Bu obrazlar go'yoki xayolimizda gavdalanadi va asarni tushunishimizda yordam beradi.

Asarning bosh qahramonlari Qo'chqor, Olimjon va Qumrilar o'zbek xalqining fazilatlarini va nuqsonlarini ko'rib, xulosa chiqarish imkonini beradi.

"Qo'chqor: E, seni xotin qilib yurgan menga ming rahmat-e? Xop soldatlar nima deyishdi?

Qumri: "Ros duva, vzali" deyishdi

Qo'chqor: Nima-li?

Qumri: "Vzali"

²⁴ <http://www.oyina.uz/uz>

Qo'chqor: "Vzyali", o'qimagan! "Raz-dva " mish! Nima, armiyada faqat ikkigacha sanashni o'rgatar ekanmi? "

"Oilmjon: Plastik. Faqat tashqi ko'rinishi emas, xatti-harakati, imoishoralari, gap-so'zi odamga maksimum darajada yaqinlashtirilgan.

Qo'chqor: Nima-simum?

Olimjon: Maksimum. Masalan, boshqaruv blokiga yumor hissi bilan bog'liq mikrosema o'rnatilsa...

Qo'chqor: Nima-sxema?"²⁵

Mana ikki parcha orqali odamlarning bilim-saviyasi o'sha vaqitda qay darajada bo'lganligini bilishimiz mumkin. Afsuski, bu achchiq haqiqat. Qo'chqor aka barcha erkaklarning ifodasi, "ishlash, dam olish, qorin to'q, kun o'tyapti" degan o'ylovchi inson. Hech qachon o'qish haqida o'ylab ko'rmagan ham. Muallif Olimjon va Qo'chqor obrazlarini yonma-yon qo'yish orqali ma'lum bir ziddiyatni vujudga keltirgan, ya'ni bir davrda yashayotgan insonlar o'rtasidagi katta tafovit. Qumri obrazi esa umrini oilasiga, farzandlariga, mehnat qilib kun kechirishga bag'ishlagan fidoyi o'zbek ayollarining timsoli.

Ushbu asardagi barcha obrazlar realistik obrazlardir. Ularning aksi bo'lgan Romantik obrazlar --hayotda aynan bo'lmaydi. Ularn orzu qilingan, ko'tarinki ruh bilan sug'orilgan obrazlar hisoblanadi. Bunday obrazlar insonlar orzu qilgan holda benuqson, komil inson qiyofasida gavdalanadi. Bunga misol qilib, Alisher Navoiyning "Xamsa" asaridagi "Farhod va Shirin" dostonini olsak, asarning bosh qahramonlari Farhod, Shirin, Mehinbonu kabi obrazlar gozal insoniy fazilatlarga ega bo'lgan shaxslardir.

Hayoliy-fantastik obrazlar esa benihoyat bornirilgan, mo'jizaviy harakterga ega bo'lgan obrazlardir. Bunday obrazlar ko'proq xalq og'zaki ijodida hamda yozma adabiyotning ilmiy-fantastik turida uchraydi.

Xalqimiz orasidagi eng mashhur dastonlardan biri "Alpomish" dostoni ham hayoliy-fantastik obrazlar turiga kiradi. Bunday obrazlar butunlay hayotiy bo'lmagan, balki ular bitmas-tuganmas kuch-qudratga ega qilib tasvirlanadi. Yeti yoshli Hakimbek bobosi Alpinbiydan qolgan 14 botman yoyni ko'tarib, Alpomish nomini oladi. Mana shu voqea ham "Alpomish" hayoliy obraz ekanligining ifodasi.

Xudoyberdi To'xtaboyevning "Sariq devni minib" asari ham mana shunday obrazlar bilan boyitilgan asar. Undagi sehr ko'rsata oladigan, gapiradigan qalpoqcha, qalpoq yordamida ko'rinmas bo'la oladigan Hoshimjon obrazlari muallif xayoloti hisoblanadi. Asarda sehr orqali hayotini o'zgartirmoqchi, ayrim

²⁵ <https://www.ziyouz.com/kutubxona/barcha-kitoblar>

insonlarni o'zicha jazolamoqchi bo'lgan bolaning sarguzashtlari juda qiziqarli tasvirlangan. Asar so'ngida Hoshimjon o'ziga tegishli xulosani chiqaradi.

Ramziy obrazlarda ko'proq jonivorlar, hashorotlar, qushlar va o'simliklar, shuningdek, turli xil predmetlar tilga kirib ma'lum bir ijtimoiy muhitni yaratadi. Bunga Ezopning masallarini hamda Gulxaniyning "Zarbulmasal" asarini misol qilib olishimiz mumkin. Ushbu asarlardagi hayvonlar insonlardagi hislatlarni ifodalaydi. Misol uchun, "Tulki" obrazi ayyor va hiylakor insonlarni, sher badjahil insonlarni, "Kiyik bilan tokzor" masalidagi Kiyik esa bировga choh qazigan insonlarni majoziy timsoli sanaladi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, badiiy asardagi har bir obraz malum bir ko'zlangan maqsadda tanlanadi va asar mazmunini kengroq yoritib berishga xizmat qiladi. Agar kitobxon asarni sinchiklab o'qisa, uning asl mazmunini anglab yetadi. Chunki yozuvchi asarda obraz vositasida voqea-hodisalar, kishilar va ularning kimligiga munosabat bildiradi, ular ustidan hukm chiqaradi. E'tiborli o'quvchi asarni taxlil qiladi, asardagi obrazlarga munosabat bildiradi hamda o'ziga tegishli xulosa chiqaradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. D.Quronov. "Adabiyotshunoslikka kirish" T: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashiryoti 2004. 63-b
2. K.Qurambayev. "Adabiyotshunoslik asoslari" Nukus, 2011.
3. Bahridinov M.M. Some problems of lexical investigation of the novel Ulysses by James Joyce. Namangan davlat universiteti ahborotnomasi ISSN:2181-0427 2020 - yil, 1 - son, 208 - 212 b.
4. M.Yusuf. "Saylanma", "Sharq" nashiryoti Toshkent, 2007, 344-b
5. N.Sobirova. "Adabiyot darslarida adabiy tur va janrlarni o'rgatish usullari" Nukus, 2015.
6. R.Yaqubjonova. E. Xeminguey asarlarida qo'llanilgan xorijiy so'zlarning lingvostilistik xususiyatlari va ularni o'zbek tiliga tarjima qilish masalalari. Eurasian Journal of Academic Research.87-92. 2023
7. G.Zaynobiddinova. The role of E-Media in our lives: shaping The modern world. Journal of language and linguistics 184-192 2023
8. G.Zaynobiddinova. Literature as a Branch of Linguistics. Excellencia: International Multi-disciplinary Journal of Education (2994-9521). 8-11. 2024

FOYDALANILGAN INTERNET SAYTLARI:

1. <https://www.ziyouz.com/kutubxona/barcha-kitoblar>
2. <http://www.oyina.uz/uz>
3. <https://staff.tiame.uz/>